SCIENCE CONNECTS PEOPLE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF

2026 / No. 1(1)

Contemporary Pedagogical and Philological Research

Sharq va G‘arb epik an’analarida qahramon obrazi(“Alpomish” va “Odisseya” dostonlari qiyosida)

ABJALOVA GULANDON

Qarshi davlat universiteti

Filologiya fakulteti

2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar:Ravshanova Gulruhbegim

Qarshi davlat universiteti, dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalq dostoni “Alpomish” hamda qadimgi yunon adabiyotining nodir namunasi bo‘lgan Gomerning “Odisseya” asari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarlardagi qahramon obrazlari, syujet chiziqlari, sinovlardan o‘tish jarayoni sadoqat, matonat va vatanparvarlik g‘oyalari asosida G‘arb va Sharq epik tafakkuridagi umumiylik va farqli jihatlar yoritiladi. Tahlil jarayonida har ikki doston xalqning dunyoqarashi hamda ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi badiiy yodgorlik sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Alpomish, Odisseya, epos, Sharq va G‘arb adabiyoti, qahramonlik, vatanparvarlik, sadoqat.

Аннотация. В данной статы проводится сравнительный анализ узбексого народного эпоса “Алпомиш” и поэмы Гомера “Одиссея”.Рассматриваются образы главных героев, сюжетные линии, мотивы испытаний, верности, мужетсва и любви к родине.В статье раскрываются общие и отличителные черты восточной и западной. Эпической традиции, а также их значение в отражении мировоззрения и духовных ценностей народов.

Ключевые слова: Алпомиш, Одиссея, эпос, восточная и западная литература, патриотизм, верность.

Annotatsiya. This article provides a comparative analysis of the Uzbek epic “Alpomish” and Homer’s “Odyssey” .The study examines heroic images, plot

structures, trials, loyalty, courage and the theme of devotion to homeland .The similarities and differences between Eastern and Western epic traditions are analyzed emphasizing their role in reflecting national mentalty and cultural values.

Keywords: Alpomish, Odyssey, epic, heroism, Eastern and Western literature, patriotism, loyalty.

Sharq va G‘arb an’analari ming yillar davomida bir-biriga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatib kelgan.

Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan savdo-sotiq, ilmiy va madaniy aloqalar nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki adabiy meros shakllanishiga ham kuchli ta’sir o‘tkazgan.

Natijada turli mintaqalarda yaratilgan epik asarlardan o‘xshash syujetlar, umumiy g‘oyalar va qahramonlik timsollari paydo bo‘lgan.O‘zbek xalqining “Alpomish” dostoni hamda yunon adabiyotining durdonasi hisoblangan “Odisseya” ana shunday umumiylik va farqlarga boy epik asarlar sirasiga kiradi.

Har ikki doston xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy dunyosi va orzu-umidlarini mujassamlashtirgan badiiy yodgorliklardir.

“Alpomish “ dostoni xalq og‘zaki ijodining yorqin namunasi bo‘lib, unda qahramonlik, sadoqat, matonat va vataparvarlik g‘oyalari yetakchi o‘rin egallaydi.

Gomerning “Odisseya “asari esa qadimgi yunon adabiyotining yuksak namunasi bo‘lib, o‘z yurti va oilasiga sadoqatli, dono qahramonning sarguzashtlari orqali davr mifologik dunyoqarashi aks ettiriladi .Bu ikki asar undagi qahramonlar zahiran turlicha muhit va an’analarga tegishli bo‘lsa-da, ammo botinan qiyoslansa, ko‘plab o‘xshashliklarga guvoh bo‘lamiz.

Xususan, Itaka shohi Odissey obrazi aql-zakovat, donolik va tadbirkorlik timsoli sifatida gavdalanadi. U vataniga qaytishga urinar ekan, yo‘lda ko‘plab xavf-xatarlarga duch keladi.

Odissey bu sinovlarni kuchdan ko‘ra ko‘proq hiyla, aql va sabr bilan yengib o‘tadi.

Shuning uchun dostonda “aql-idrokli”, “bosiq”, “metin yurakli”, “ayyor” kabi sifatlar bilan ulug‘lanadi. Shuningdek, Odisseyning ayollarga bo‘lgan munosabati sharq xalqlari mentalitetidan tubdan farq qilishini ko‘rishimiz mumkin va bu keyinchalik uning fojiali qismatiga sabab bo‘ladi: Ma’buda Sirseyadan bo‘lgan farzandi Telegon Odisseyni tanimay, zaharlangan o‘q bilan halok qiladi.

Qizig‘i shundaki, Odissey safari chog‘ida zulmat Aidga tushganida, Tiresiyning ruhi unga:”Vataningga qaytib, tinch va osuda hayot kechirasan, qaraganda chog‘ingda o‘limingni senga sokin dengiz keltirgay[1] “,--deb bashorat qilgan edi. Biroq Odissey begona yurtda dorilomon yashagandan ko‘ra o‘z qadrdon vatanida so‘nggi umrini o‘tkazishni afzal biladi. Bu esa undagi donolik va falsafiylik xususiyatlarining yanada sayqallanib, yuksak darajaga yetayotganligidan dalolat beradi.

Inson peshonasiga bitilgan qismatidan hech qachon qochib qutulolmasligini hamda unga qarshi chiqish emas, balki to‘g‘ri qabul qilish orqaligina umrini yanada mazmunli qila olishini anglab yetamiz.

“Qo‘ng‘irot to‘rasi”, “ bek” kabi ta’riflangan Alpomish obrazi xalqning orzu qilgan ideal qahramoni sifatida tasvirlanib, uning har bir harakati el-yurt manfaatiga xizmat qiladi.

Alpomish mard, pahlavon, jasur bo‘lishi bilan birga sodda va ishonuvchan qahramon hisoblanadi. Shu sababli Surxayl kampir qo‘ygan tuzoqqa osongina tushib qoladi:To‘qson alpi bilan minglab qalmoqlar ustidan g‘alaba qozongan to‘ra qirq qizlarning hiylasi tufayli hamrohlari va erkidan ajraladi.

Alpomishning zindonda yetti yil qolishi jismoniy sinovdan ko‘ra ma’naviy yetuklik jarayonini ifodalaydi.

Ushbu sinovlar orqali uning sabri, irodasi va ruhiy bardoshi yanada mustahkamlanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, “Alpomish “ va “Odisseya “

dostonlarida qahramon obrazi nafaqat uning jasorati, balki ramziy belgilari orqali ham ochib beriladi.

Shunday ramzlardan biri qahramonning quroli hisoblangan kamondir.

Har ikki asarda ham yoydan faqat o‘z egasi to‘liq foydalana oladi va shu elgisi orqali haqiqiy qahramonning o‘zgacha qobilyati namoyon bo‘ladi.

Alpomishning o‘n olti botmonlik parli yoyini hech kim ko‘tara olmaydi.

Xuddi shunday holat “Odisseya”da ham uchraydi:Odisseyning kamoni yog‘och dan yasalgani uchun ko‘tarish oson edi-yu, ipini tortib o‘tkazishning iloji yo‘q edi. Demak, har ikki dostonda kamon qahramonning kuch -qudratini ifodalovchi ramziy vosita sifatida xizmat qiladi.

Dostonlardagi yana bir muhim jihatlardan biri shart motivi hisoblanadi.”Odisseya “da sadoqatda tengsiz Penelopa Odissey yo‘qligida ochko‘z sovchilarni yigirma yil turli bahonalar bilan niyatiga yetkazmaydi.

Oxiri ulardan butunlay qutulish uchun ularga shart qo‘yadi:”Bu Odisseyning kamonidir:kimki uning chillasini tortib, bog‘lasa va otgan o‘qi o‘n ikki xalqaro ichidan hech biriga tegmay o‘tsa, men baxtimni topib oila qurgan aziz va charog‘on go‘shadan, garchi bir umr eo‘msab o‘tsam hamki, boshimni olib chiqib ketaman o‘shal g‘olib bo‘lgan mard-la “. Talabgorlar ichidagi eng qudratlilari Antinoy va Yevrimey edilar.

Biroq hech kim shartni bajarolmaydi. Bu paytda ular ichida o‘zini sezdirmay yurgan Odissey hammani hayron qoldirib, shartni bajaradi va tuzgan rejasiga binoan kuyovlarga ham qutiladi.

Penelopa bitta shart qo‘llaydi, Barchinoy esa to‘rtta shart qo‘yadi va Qorajonga shunday deydi:”Boboxon tog‘idan poyga qilaman, Ko‘zdan yoshni munchoq-munchoq tizdirsa, Qo‘shqanotning quyrug‘ini so‘zdirsa, Boboxondan poyga qilib o‘zdirsa, Oti ildam boybachchaga tegaman.

Mendayin oyimning holin bilganga, Osha yurtdan mehnat tortib kelganga, Dushmanlarga qora kunni solganga, Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga, Men

tegaman shul yoyondoz polvonga.G‘anim ko‘rsa, qiyomat kun solganga, Osha yurtdan izlab halak bo‘lganga, Ming qadamdan tanga pulni urganga, Men tegaman shul qirag‘ay merganga.

Kurash qilib to‘qson alpni yiqqanga, Men tegaman nor bilakli polvonga.

Zog‘ ham bo‘lsa, qo‘naversin gulshanga, Bab -barobar qildim yaxshi-yomonga, Men tegaman to‘rt shartimni qilganga.” Har ikki bosh qahramon ham bu musobaqada qatnashib, muvaffaqiyatga erishadilar. Rafiqalarining bu kabi qat’iy shartlari bevosita qahramonlik tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning oila va nasl ma’suliyatiga jiddiy qarashini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda qahramonlarning farzandlari obrazi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Odisseyning o‘g‘li Telemax otasiz ulg‘aygan bo‘lsa-da, asta-sekin yetuklik sari qadam qo‘yadi.U otasini izlash bilan birga o‘zligini anglab ham boradi.”Alpomish “ dostonida esa Yodgor obrazi otaning davomchisi, uning nomi va sha’nini saqlovchi avlod ramzi sifatida gavdalanadi.

Yosh bo‘lishiga qaramay, onasi Barchinoyni himoya qiladi, otasining qurolidan foydalanadi.

Har ikki dostonda ham vatan sog‘inchi markaziy mavzulardan biri hisoblanadi.

Alpomish o‘z elini ozod qilish va yurt tinchligini tiklash uchun kurashsa, Odissey uzoq yillar davomida oilasi va vatani sari intilib yashaydi.

Alpomish xalq ishonchi va milliy qadriyatlarga tayansa, Odissey ko‘pincha xudolar irodasi bilan bog‘liq holda tasvirlanadi:Ma’buda Afina uni himoya qiladi, dengiz ma’budi Paseydon esa qasos olish istagida kemalarini cho‘ktiradi.

Bu jihat esa Sharq va G‘arb dunyoqarashi o‘rtasidagi asosiy farqlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda,”Alpomish “ va “Odisseya “ dostonlari g‘arb va sharq epik tafakkurining yetuk namunasi bo‘lib, har ikki asarda qahramon obrazi sinovlar jarayonida komillik sari shakllanib boradilar.

SCIENCE CONNECTS PEOPLE

Penelopa va Barchinoy qo‘ygan shartlar asosida ularning vafosi va aql-zakovati namoyon bo‘ladi.

Farzandlari orqali o‘ta merosining davomiyligi yortiladi.

Alpomish va Odisseyning vataniga qaytishi esa adolat va sadoqatning tantanasi sifatida talqin etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ”Alpomish” xalq og‘zaki ijodi Toshkent,2019.
2. Gomer .Odisseya .Toshkent:O‘qituvchi, 1989.
3. ”Alpomish--o‘zbek xalq qahramonlik eposi “,T. 1999.
4. Fayzulla Boynazarov .Jahon adabiyoti. Toshkent .2006.